

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutida 21-oktabr – O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan “O‘zbek tili – milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatimiz timsoli” mavzusida ilmiy-ma’rifiy anjuman HISOBOTI

Anjumnni Samarqand davlat universiteti prorektori S.Abbasov ochib berdi. Anjuman O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi ijro etilishi boshlandi. Shundan so‘ng Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti direktori, professor Jo‘liboy Eltazarov, o‘zbek tilshunosligi kafedrası professori Dilbar O‘rinboyeva, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti Qutlug‘ Sultonbek yig‘ilganlarni til bayrami bilan tabrikladilar va ma’ruza qildilar.



Til — xalqning ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi va milliy o‘zligining eng muhim belgilaridan biridir. O‘zbek tili esa nafaqat aloqa vositasi, balki mustaqil davlatimizning siyosiy, ijtimoiy va madaniy poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat tilining mavqeini mustahkamlash, uni rivojlantirish va barcha sohalarga joriy etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bugun o‘zbek tili millat birdamligi, istiqlool g‘oyalari va davlat suverenitetining yorqin timsoli sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek tili XI asrdan buyon shakllanib kelayotgan ulkan ma’naviy merosga ega. Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab

kabi allomalarning asarlari orqali o‘zbek tili nafaqat adabiy til sifatida, balki millat tafakkuri va ma’naviyati timsoliga aylangan. Bugun o‘zbek tili xalqning tarixiy xotirasini, urf-odatlarini, qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim vositadir.

Anjuman so‘ngida “Yosh tilshunos” ilmiy-ijodiy to‘garagi a’zolarining badiiy chiqishi va musiqiy dastur namoyish etildi.

**Ilmiy ishlar va innoatsiyalar
bo‘yicha prorektor**



H.Xushvatov



